O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
QASHQADARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

180100, Qarshi Shahri, I.Karimov shox ko'chasi 60a-uy, Tel/Faks: 71-203-11-17, E-mail: kashdavekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Turayev Baxodir Abdiraxmonovich
Sana: 23-08-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

255853 - SONLI

Obyekt nomi: Noturar binoni rekonstruksiya qilib, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va qolgan qavatlari ko'p qavatli turar joy binosi	
Buyurtmachi:	EYFEL STROY MCHJ
Bosh loyihachi:	"GIDRO STROY EKO PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“Eyfel stroy” MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	082971

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Qarshi shahar qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limi tomonidan obyektni ixtisosini o’zgartirish va rekonstruksiya qilishga 26.11.2024 yildagi 160134844-sonli ruxsatnomasi.

1.2. “Eyfel stroy” MCHJ direktori tomonidan tasdiqlangan loyiha topshiriqnomasi.

1.3. Qashqadaryo viloyat Arxitektura qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 15-mayda berilgan 1710-1710401-225405-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-06-24 dagi 197205962-sonli xulosasi.

1.5. Davlat ekologik ekspertizasining 2025-yil 29-maydagi 01-02/05-2868-sonli xulosasi.

1.6. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 08.07.2025 yilda tuzilgan 8-2025-sonli shartnoma.

1.7. Texnik shartlar:

“Hududiy elektr tarmoqlari”AJ “Qashqadaryo hududiy filiali” tomonidan 19.05.2025 yilda berilgan 1040146090-sonli texnik shart.

“Qashqadaryo suv ta’minoti” AJ tomonidan 19.05.2025 yilda berilgan 177-sonli texnik shart.

“Hududgaz Qashqadaryo” GTF tomonidan 30.10.2024 yilda berilgan 058532-sonli texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha-smeta hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

Umumiy tushintirish xati - Kitob.

ART - kitob

“6 qavatli 2-yo‘lakli 40 xonadonli uy” loyihasi (AS, KJ, OV, VK, IET, YS, AT bo‘limlari) – Albom

Bosh reja. – Albom

“O‘zgashLITI” DUK Qashqadaryo filiali tomonidan berilgan muhandislik -geologik sharoitlar bo‘yicha texnik xulosa – Kitob

Ob’ektning joriy narxlarda hisoblangan qiymati, mahalliy resurslar varaqasi, materiallar sarfi – kitob.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Qurilishning iqlim hududi zonasi – IY, tashqi havoning harorati +35,7℃, -14℃.

Normativ qor qoplami vazni - 50 kgs/m^2

Normativ shamolning bosimi - 38 kgs/m^2

Tuman seysmikligi - 7 ball.

Qurilish joyi: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar.

Fundament asosiga xizmat qiladigan tuproq: och sariq rangli qum va loyli cho’kuvchi tuproq. Tuproqning cho’kuvchanlik turi – cho’kuvchi, 1-tip. Tuproq elementi qalinligi – 2,8m dan-3,0m. Fizik-mexanik ko’rsatkichlari: γ=1,48t/m3, φ=27gr, S=4-6KPa. Tuproqda suvning chuqurligi –3,9-4,3m da aniqlandi. Tuproqning agressiv ta’siri «kam agressiv» suvga chidamliligi bo'yicha barcha markalarning sulfatga chidamli sementidagi beton uchun – agressiv emas; temir-beton buyumlarga - «agressiv emas»

- Tuproqning seysmik bo’yicha toifasi – uchinchi.
- Hisobiy seysmik maydoni – 8 balli.

Asosiy loyiha yechimlari

3.1. Arxitektura-rejalashtirish yechimi.

“1 qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, qolgan qavatlari turar joy binosi” olti qavatli, to‘g‘ri burchakli formada o‘lchami o‘qlar bo‘yicha -11,63x39,6 metr bo‘lib ikki blok-seksiyadan iborat. Barcha qavatlarning blok-seksiyada 1, 2 va 3 xonali xonadonlar joylashgan. Ikkinchi va keyingi qavatlarga ichki zina va lift orqali chiqiladi. Binoda yerto‘la mavjud bo‘lib, avtoturargoh joylashgan. Savdo shahobchalarining markaziy kirish qismi pandus bilan jihozlangan. Ichki pardoz: suvoq, suvli emulsiya bo‘yoq va ohak bilan oqlash. Vannaxona, hojatxona va oshxona devorlari 1,8 m balandlikda keramik plitka bilan qoplanadi. Pollar – keramik plitka, laminat. Tashqi pardoz: zamonaviy pardozlash materiallari yordamida amalga oshiriladi.

3.2. Texnologik yechim.

“1 qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, qolgan qavatlari turar joy” binoda jami 40 ta xonadon joylashgan, shundan 10 tasi 1 xonali, 20 tasi 2 xonali, 10 tasi 3 xonali. Har bir odatiy qavatda 8 ta xonadon mavjud. 1 xonali xonadon kirish yo‘lagi, umumiy xona, oshxona, dushxona va san.uzeldan iborat. 2 xonali xonadon kirish yo‘lagi, umumiy xona, yotoqxona, oshxona, va san.uzel dan iborat. 3 xonali xonadon kirish yo‘lagi, xoll, umumiy xona, 2 ta yotoqxona, oshxona, va san.uzel dan iborat. Uyning yerto‘la mavjud bo‘lib. Bino ichimlik suv, elektr ta’minoti hamda o‘t o‘chirish uchun birlamchi jihozlar bilan ta’minlangan.

3.3. Zilzila bardoshlik yechimi.

“6-qavatli 40 xonadonli uy” quyma temir beton ramali va tashqi devori pishgan g’ishtdan kompleks konstruksiya devor bilan loyihalashtirilgan.
Bino o‘lchami o‘qlar bo‘yicha 11,6x50,0m (shundan 9,8x11,6m avtoturargoxga kirish qismi).
Binoning qavatlar balandligi -3,0m. Yerto’la chuqurligi -3,0m.
poydevori – quyma temir beton plita qalinligi t=600mm sinf B20.
poydevor devori – devorbop yig’ma temir beton blokdan GOST 13579-78.
devori – pishiq g‘ishtdan, sementli qorishma M-50, tashqi devorlar qalinligi 380mm va 250mm, issiqlik saqlovchi material PPJ-120kg/m3 bazalt plita, t=50mm.
O‘zaklar – quyma temir betonli sinf B15.
zina - quyma temir betonli sinf B15.
temir beton ustun va to‘sinlar – quyma temir betondan, beton sinfi B22,5.
Diafragmalar – quyma temir betonli qalinligi t=400mm va 200mm sinf B15.
orayopma va tomyopma – UTR-46.1-95s i/ch 7 seriyali yig‘ma temir betondan.
tomi – chordoqli, tom qoplamasi profnastil t=0.45mm, yog’och obreshetka qadami 250mm, hamda stropila.
tomda issiq-sovuq saqlovchi – bazalt plita PPJ-140kg/m3 bazalt plita, t=150mm.
pollari – seriyasi 2.244.1 i/ch.6, issiqlik saqlovchi qalinligi 30mm.li va 10mm.li g’ovakli polietilen.
otmostkasi – betonli, eni 2,0m.
Loyihada poydevor tagiga qalinligi 600mm GPS to‘shama o‘rnatilgan.

3.4. Bosh reja. Loyihalashtirilgan qurilish uchun ajratilgan maydon Noturar binoni rekonstruksiya qilib, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va qolgan qavatlari ko'p qavatli turar joy binosini. Ushbu hududda 1 dona 6 qavat 2 padezli 48 xonadonli uy-joylar qurilishi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari hududda bolalar o’yingohi, musirni yashik, svetilnik, besedka, transformator, yong’in gidrant, Aloqa uchun kalodis, yer osti avtoturargoh, yong‘inga qarshi rezervuar, avto turargoh, nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun loyihada barcha qulayliklar yaratilgan. Asosiy kirish joyi nogironlar uchun pandus bilan jihozlangan. Vertikal loyihalashtirish yondosh hududlar bilan birga amalga oshiriladi. Loyihada mashinalar turar joyi ko‘zda tutilgan. Hududda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

3.5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga sharoitlar Imkoniyati cheklanganlar uchun "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning xuquqlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son qarori asosida va ShNQ 2.07.02-24 “Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ga muvofiq loyihada chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, shundan asosiylari:
“Turar joy binolari” asosiy kiraverishida ko’tarma kran qurish;
eshiklar romlarini paroksiz o‘rnatish;
avtoturargoh va aloxida belgilangan joy.
nogironligi bo’lgan shaxslarga taktil plitali yo’laklar qilingan.

Asosiy texnik -iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Qurilish hajmi - 10368,0m3.
Umumiy maydoni - 2536,0m2.
Qurilish maydoni - 480,0m2.
Quvvat - 40 xonadon.
Ob’ektning QQS bilan buyurtmachi xarajatlarsiz
joriy narxlardagi smeta qiymati - 13 490 457,801 ming so‘m.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: - 46 325,648 kishi/soat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Muhandislik uskunalari.

Isitish bo‘limi: Bo’lim OV: Isitish tizimi past dan tarqatiladigan ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan,polipropilen quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan.Har bir xonadonga alohida alohida individual isitish qozonlari o’rnatilgan.Shamollatish havo berish va havoni so‘rish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi.Toza havo xonalarga deraza va eshiklar hamda havo beruvchi qurilmalar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik va oqova suv bo‘limi: Ichki suv alohida kiritilib loyihalashtirilgan. Loyihada po’lat va polipropilen quvurlar qo‘llanilgan.Issiq suv ta’minoti elektr suv isitish va quyosh suv isitish qurilmasi bilan amalga oshirilgan.Binoda ichki yong’in kranlari va splinkerlar o’rnatilgan. GOST 10704-91 bo‘yicha po‘lat quvurlar qabul qilingan.Yong’in kranlariga va suv bilan ishlaydigan qurilmalarga suvni bosim bilan yetkazib berish uchun yerto’lada nasoslar o’rnatilgan.Yong’inga qarshi suv zahirasi uchun yong’in o’chirish hovuzlari o’rnatilgan.Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, ПВХ plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

IET bo’limi: Loyihalaniyotgan ko’p qavatli turar-joy binosining ichki elektr ta’minoti: Tarmoq kuchlanishi 380/220V. Hisoblangan umumiy quvvati 233,3 kVt, Hisoblangan tok Ir 395A. Yerto’la qismida o’rnatilgan suv nasoslari va yoritish chiroqlarining elektr ta’minoti elektr taqsimlash qurilmasi (SHS)dan amalga oshirilgan. Binoda o’rnatilgan liftlarning elektr ta’minoti elektr taqsimlash qurilmasidan amalga oshirilgan. Xonadonlarning yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta’minoti taqsimlash qurilmasi (SHK)dan amalga oshirilgan. Taqsimlash qurilmasi (SHK)ning elektr ta’minoti VVG kabellari orqali qavatlarda o’rnatilgan elektr taqsimlash qurilmasi (SHE)dan amalga oshirilgan. Binoning ichki yoritish chiroqlari zamonaviy turdagi LED yoritish chiroqlari bilan ta’minlangan. Yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta’minoti VVG kabellar bilan devorning suvoq qatlam ostidan amalga oshirilgan. Xonadonlarning elektr energiyasini hisobi qavatlarda o’rnatilgan taqsimlash qurilmasi (SHE)da o’rnatilishi ko’zda tutilgan bir fazali elektron hisoblagich orqali amalga oshirilgan. SHEning elektr ta’minoti VVG kabellari orqali binoda o’rnatilgan ichki taqsimlash qurilmasi (VRU)dan amalga oshirilgan. Xonadonlarning eshik qo’ng’iroqlari o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Binoning umumiy foydalanish qismida ishchi yoritish jixozlari QMQ 2.01.05-19 4.27 bandi ko’rsatilgan talablar (harakatni va yorug’likni sezuvchi qurilmali yoritgichlarni qo’llash zarur) asosida bajarilgan. Muqobil elektr manbai sifatida zamonaviy turdagi quvvatga mos quyosh elektr stansiyasi o’rnatilgan.

YS bo’limi: Loyihaviy binoning yerto’la hamda xonadonlarning yong’indan avtomatik xabarlash moslamasi o’rnatilgan. Qurilmalarini elektr ta'minoti o'zgaruvchan tok tarmog'idan amalga oshiriladi va favqulodda rejimda qurilmaga o'rnatilgan akkumulyator batareyalariga avtomatik o'tadi. Asboblar to'plamida Signal tizimi uzluksiz quvvat manbai blokini o'z ichiga oladi, bu qurilmani 12 V akkumulyatordan 8 soatdavomida ishlashi ta’minlangan. Yong'in signalizatsiyasi tarmoqlari KPSVVng 2x0,5 mm² tipdagi simlar yordamida, bino konstruktsiyalarida ochiq, poldan 2,5 m dan past bo'lmagan balandlikda amalga oshirilgan. Binoni yong’in xavfini aniqlovchi issiqlik hamda tutun ditektorlari DIP-34A-03, IP-106 va qo’lda xabarlash IPR 513-3AM tanlab olingan. SHNK2.04.09-2007 ma'lumotlariga ko'ra, ovozli ogohlantirish berilgan. Buning uchun SUZ ovozli signallarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

VK bo’limi: Loyihaviy binoning yerto’la hamda xonadonlarning tashqi va ichki videokuzatuv moslamasi (NVR) binoda o’rnatilgan telekommunikatsion shkaf orqali amalga oshirilgan.

Videokuzatuvni yozib borish kommutatorlar orqali IP turdagi ichki va tashqi kuzatuv kameralari o’zaro videokuzatuv aloqasi UTP kabellari orqali aloqa almashinuvi ta’minlangan. Uskunalar to'plamida signal tizimi uzluksiz quvvat manbai blokini o'z ichiga oladi, bu qurilmani 12 V akkumulyatordan 8 soat davomida ishlashi ta’minlangan.

4.3. Gaz ta’minoti bo’yicha

Ushbu loyihada gazlashtiriladigan turar-joy binoning ichki gaz tarmoqlari nazarda tutilgan.

Loyihalanadigan past bosimli D-57x3mm, D-32x2,8mm, D-20x2,5mm (GOST 10705-80) gaz quvurlari turar-joy binoning tashqi va ichki devorlariga mahkamlangan holda o’tkazilgan.

Gaz quvurining binoga kirish qismlarida D-32mm o’chiruvchi jumraklar o’rnatilishi loyihada ko’rsatilgan. Qurilish konstruksiyalarni kesib o’tish joylarida gaz quvurlari po’lat quvurlardan bo’lgan g’iloflar ichidan o’tkazilgan.

Jami gaz quvurlarining uzunligi 498 pm ni tashkil qiladi.

Turar-joy binosi 40 xonadondan iborat bo’lib xar bir xonadon oshxonasida 4 kamparakli gaz plita, 2 konturli isitish qozoni, gaz filtri, avtomatlashtirilgan tizimga mos keluvchi gaz o’lchash uskunasi va klapanli gazsignalizator o’rnatilishi loyihada ko’rsatilgan.

Loyihalanadigan gaz uskunalarning taxminiy soatlik gaz sarfi 135,36nm3/soatni tashkil qiladi.

Gaz sarfini aniq hisoblash maqsadida loyihada har bir xonadonda avtomatlashtirilgan tizimga mos keluvchi G-4 (Qmax = 6m3/soat) rusumli gaz o’lchagichlar o’rnatilgan.

Yer usti gaz quvurlarini tashqi muhit ta’siridan zanglashdan homaki va 2 marta moyli bo’yok bilan bo’yash orqali himoya qilinadi.

Binoning tashqarisida o’rnatiladigan D-32mm gaz jumraklarni yer sathidan 1,8m balandlikda o’rnatilishi loyihada ko’rsatilsin.

Loyihada gaz uskunalarini tabiiy gaz bilan bir me’yorda ta’minlash ko’zda tutilgan.

Loyihaning asosiy texnik iqtisodiy ko’rsatgichlari

- Bir soatlik gaz sarfi – 135,36 nm3/soat
- Gaz quvurining uzunligi – 498 pm

shundan yuqori bosimli gaz quvuri - pm

o’rta bosimli gaz quvuri – pm

past bosimli gaz quvuri – 498pm

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-06-24 dagi 197205962-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasining 2025-yil 29-maydagi 01-02/05-2868-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **13 490 457 801** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

364 748 462 so'mga oshirilib, **13 855 206 263** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **11 037 586 952** so'm

Asbob-uskunalar: **1 333 132 925** so'm

QQS: **1 484 486 385** so'm

6.1. Arxitektura-qurilish yechimi bo‘yicha: Muhim e’tirozlar yo‘q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to‘g‘rilandi.

6.2. Zilzila bardoshlik yechimi bo‘yicha. Muhim e’tirozlar yo‘q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to‘g‘rilandi.

6.3. Bosh reja bo‘yicha. Muhim e’tirozlar yo‘q, loyiha mavjud normativ hujjatlar asosida bajarilgan. Loyiha obodonlashtirishning ishchi chizmalari bilan to‘ldirilsin.

6.4. Muhandislik qurilmalari bo‘yicha.

Bo‘lim: OV, VK: Muhim e’tirozlar yo‘q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to‘g‘rilandi.

IET,YS,VK bo‘limlari: Muhim e’tirozlar yo‘q, loyiha mavjud normativ hujjatlar asosida bajarilgan.

6.5. Smeta qismi bo‘yicha: Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko‘rib chiqdi.

Xarajatlar darajasi tekshirildi: ish haqi, mashina va mexanizmlarning ishlashi, asosiy qurilish materiallari ShNK 4.02.00-05 normalariga muvofiq. “Uslubiy tavsiyalar” va ShNK 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan ob’ekt narxi amaldagi narxlarda aniqlash hisob kitobi asosida ko‘rib chiqildi. Pudratchining boshqa xarajatlari 17,0 % ni tashkil etadi.

Qurilish materiallari va konstruksiyalarining narxlari “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sanoatida foydalanadigan moddiy-texnika resurslari uchun amaldagi narxlar katalogi” bo‘yicha mintaqadagi o‘rtacha me’yorlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq qurilish jarayonida belgilangan tartibda loyiha tashkiloti tomonidan obyektda mualliflik nazoratini olib borilsin.

Qurilish davomiyligi qurilishni tashkil etish loyihasi asosida.

7. Xulosalar.

7.1. **Noturar binoni rekonstruksiya qilib, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish va qolgan qavatlari ko'p qavatli turar joy binosi** ob’ektining loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqilib, quyidagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatgichlar bilan kelishishga tavsiya etiladi.

Ob’ektning QQS bilan buyurtmachi xarajatlarsiz

joriy narxlardagi smeta qiymati - 13 855 206,263 ming so‘m.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: - 46 736,386 kishi/soat.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 1-ilovasi, 3-bob, 29-bandiga asosan, “Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

7.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 11- iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ob’ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom” va Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 26-apreldagi 243-sonli qaroriga ko‘ra, ob’ektning tavsiya qilinayotgan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan va shartnoma tuzish uchun asos bo‘lmaydi.

7.4. Loyiha Qashqadaryo viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazilsin.

Bosh ekspert: Sharipov O‘ral Tolip O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Xolmurodov Jasur Faxriddinovich, Hasanov To‘lqin Najmiddinovich, Xikmatov Irkin Muxitdinovich, Sharipov O‘ral Tolip O‘g‘li, Abduraximov Jasur Kozim O‘g‘li, Rustamov Qosimxon Ilhom O‘g‘li